

TOSHKENT SHAHRIDA “XAVFSIZ POYTAXT” KONSEPSIYASINI JORIY ETISHDAGI (XALQARO DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) MUAMMO VA YECHIMLAR

Tashpulatov Aziz Anvarovich

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda jahon miqyosida xavfsizka juddayam kata e’tibor qaratilmoqda shu jumladan mamlakatimizda ham bu borda keng ko’lamli silihotlar amalga oshirilmoqda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 29 avgustdagи PQ-3245-son qaroriga muvofiq, shuningdek, «Xavfsiz shahar» loyihasini amalga oshirish borasida yagona texnologik yondashuvni ishlab chiqish va amalga oshirishning aniq bosqichlarini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: “Xavfsiz shahar” tizimi — xavf-xatarlarni, favqulodda vaziyatlarni, hodisalarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni kompleks boshqarish tizimi bo‘lib, davlat tomonidan aholi hayoti va faoliyatini barcha tashqi (tabiiy, texnogen, ijtimoiy-biologik, ekologik, jinoiy va boshqa) tahdidlardan muhofaza qilish bilan birga, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqa ijtimoiy ob’yektlarni yagona axborot makoniga birlashtiradi. Bu tizim asosan o‘zining huquq-tartibot birligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu jarayonda amalda barcha o‘rnatiladigan va jamoat tartibi hamda yo‘l harakati qoidalari buzilishlarini aniqlaydigan kuzatuv kameralari muhim rol o‘ynaydi. Biroq, loyihaning mohiyati birgina voqea-hodisalarni uzlucksiz kuzatib borishdan iborat emas, balki ularni joyida aniqlash va oldini olishdadir, zero muammo bevosita uning boshlang‘ich nuqtasidan paydo bo‘ladi. Muammolarni o‘z vaqtida aniqlash esa ularni bartaraf etishga nisbatan xarajatlarni ancha kamaytiradi. “Xavfsiz shahar” tizimi rivojlangan davlatlarning juda ko‘plab shaharlarda tatbiq etilgan, yangi shaharlarni shu loyiha asosida qurishmoqda. Nihoyat, mamlakatimizda ham bu tizimga

start berildi. Bunga Sergeli tumanida amalga oshirilgan ishlar misoldir. Har bir davlatda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, avvalo, poytaxtdagi o‘zgarishlarga qarab baholanadi. Shu bilan birga, poytaxt o‘zining huquqiy maqomi, siyosiy va iqtisodiy hamda madaniy munosabatlarda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan hozirgi vaqtda xalqaro tajribani o‘rganish ishlari jadal su’ratda amalga oshirilmoqda. Xalqaro miqyosda “Xavfsiz shahar” va “Aqlli shahar” tushunchalari mavjud. Avvalo, “Xavfsiz shahar” bilan “Aqlli shahar” o‘rtasidagi farqni aniqlashtirib olish kerak. Ko‘pchilik bularni bitta tushuncha sifatida qabul qiladilar. Aslida bunday emas. “Aqlli shahar”da AKT imkoniyatlari, innovatsion “nou-xau”lar asosan insonlar ish faoliyatini maksimal darajada yengillashtirishga yo‘naltiriladi. Masalan, yuz tuzilishingiz yoki ovozingizdan tanib uy eshigingizning avtomatik ochilishi, kirib-chiqishda chiroqlarning o‘z-o‘zidan yonib-o‘chishi va hokazo. “Xavfsiz shahar”da esa barcha imkoniyat va qulayliklar shu yerda yashovchilarning hayoti va sog‘lig‘i bilan bog‘liq xavfsizligini ta’minlashga qaratiladi. Bir so‘z bilan aytganda, “Xavfsiz shahar” odamlarning xotirjam yashashlarini ta’minlaydigan tizimdir. “Xavfsiz shahar” tizim bizda yangilik bo‘lgani uchun, albatta, xorij tajribasi o‘rganildi. AQSh, Yevropa, Janubiy Koreya, Yaponiya va Rossiyada bu borada erishilgan yutuqlar tahlil qilindi va o‘zimizga mos tizim ustida ishlandi. “Xavfsiz shahar” yaratish bo‘yicha dunyoda yagona va standart tizim yo‘q, uning konsepsiyalari juda ko‘p. Har bir davlat imkoniyati va shart-sharoitidan kelib chiqqan holda o‘ziga birlamchi bo‘lgan omillarni ko‘zda tutib tizimni ishlab chiqadi. Misol uchun, barcha davlatlarda bu loyiha ehtimoliy tahdidlarga javob qaytarish va ogohlantirish tizimlarini integratsiya qiladi. Yanada soddalashtirsak, tizim inson hayoti va faoliyati xavfsizligi uchun birlamchi bo‘lgan tuzilmalar — sog‘liqni saqlash (tez yordam), ichki ishlar, o‘t o‘chirish, favqulodda vaziyatlar xizmatlarini o‘zaro integratsiyalaydi. Shu to‘rt tuzilma hamma davlatda mavjud va odamlar uchun juda muhim. Endi qaysidir davlat bu ro‘yxatni kengaytirishi mumkin. Masalan, ular safiga ekologiya, qutqaruv, kommunal yoki sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmatlarini qo‘sish mumkin. Integratsiyalashgan organlar qanchalik ko‘p

bo'lsa, "Xavfsiz shahar" ahamiyati shuncha ortadi. Keling, tasavvur qilib ko'ramiz. Bir joyda kimdir to'plangan xazonga o't qo'yib yubordi, buni u o'sha joyni tozalash uchun shunchaki qilgan bo'lishi ham mumkin. Xo'sh, bunday vaziyatda birinchi bo'lib kimga murojaat qilamiz: ichki ishlargami yoki o't o'chirish xizmatiga?. Har ikki organ xodimi kelishi mumkin va albatta surishtiruvlar bo'ladi o'ziga yarasha. "Xavfsiz shahar"da bunday vaziyatda birgina raqamni teramiz. Ular qayerda, qaysi manzilda yong'in bo'lganini yozib oladi va kerakli xizmatlarga tezkor xabar yuborishadi. Agar yong'in kuchli bo'lsa, uni bartaraf etish uchun albatta o't o'chirish xizmatiga, yong'inдан jabrlanganlar bo'lsa, tez yordamga xabar beriladi. Tez yordam jabrlangan odam haqida albatta tezkor ma'lumotga ega bo'ladi: yoshi, jinsi, kuyish yoki yondosh kasalliklari, hatto kasallik tarixidan ko'chirma ham yuborilishi mumkin. Tez yordam mashinasi uchun ob'yekt joyiga qaysi yo'nalish bilan tezroq yetib kelish chizmasi ham taqdim qilinadi. Shifokorlar bemorni olib ketish asnosida agar unga operatsiya zarur bo'lsa, yaqin atrofda qanday klinika borligi, operatsiya xonasi bo'sh yoki bandligi, qanday jarroh zururligi haqida bazaga ma'lumot taqdim qila oladi. Buning uchun barcha organlar xizmat mashinalari o'zaro ma'lumot almashish uchun GPS-navigatorlar bilan ta'minlanadi. Endi yong'in sodir bo'lgan joyga qaytsak, agar yong'in qasddan qilinganiga shubha uyg'onsa, bu yerga ichki ishlar organini ham jalb qilish mumkin. Yong'in oqibatida atrof-muhitga zararli tutun tarqalsa, favqulodda vaziyatlar xizmati, tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlarga ham xabar beriladi. Va albatta bularning barchasi birgina telefon raqamini terish orqali amalga oshiriladi. AQShda bu ish bilan "911" raqamli xizmat shug'ullanadi. Markaz xodimlari va ichki ishlar xodimlari bilan hamkorlikda Sergeli tumanining Sergeli 6A mavzesida "Xavfsiz shahar" yagona xizmati joriy etildi. Ushbu xizmat hozirda test tartibida ishlayapti. Test muvaffaqiyatli o'tsa, Toshkent shahrida yagona "112" raqamli "Call-center" tashkil etiladi va respublikamizda quriladigan barcha "Xavfsiz shahar"larda joriy etiladi. Poytaxtimizning Sergeli tumanida "Xavfsiz shahar»da yana qanday ishlar amalga oshirildi. Xabaringiz bor, poytaxtimizdagi juda ko'plab chorrahalarga transportlar

harakatini tasvirga oluvchi kuzatuv kameralari o'rnatilganiga bir muncha vaqt bo'ldi. Bu ham "Xavfsiz shahar" loyihasi doirasida qilingan ishlar. Bugungi kunda ushbu ishlarning natijasi hammaga ma'lum, ya'ni yo'l harakati qoidasini buzuvchi haydovchilar va yo'l-transport hodisalari sezilarli darajada kamaydi. Sergelida bu tizim ancha mukammalashtirilgan. Kuzatuv kameralari vazifasini hamma biladi. Bundan tashqari, uylarning tomlariga, yerto'lalariga «aqlli datchik»lar o'rnatildi. "Aqlli datchik"lar funksiyasi qanday ular tabiiy va texnogen hodisalar yuz berganda: tutun, is gazi, olov uchquni, suv quvurlarining yorilib ketishi, zilziladan so'ng binolarning og'ish chizig'i kabilarni zudlikda qayd etadi va ma'lumotlar bazasiga yuboradi. Ma'lumotlarni hatto suratga, videoga olib jo'natsa bo'ladi. Buning uchun barcha uy-joy shirkatlari o'zimizda ishlab chiqarilgan Artel maxsus telefonlari bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, ob-havoni, namlik darajasini, magnit to'lqinlar miqdorini aniqlab beruvchi o'lchagichlar o'rnatilgan. Bularning bari noxush voqealar oldini olish yoki bartaraf etish, eng muhimi, insonlar hayotini saqlab qolish uchun kerak. Shaharchadagi 50-sonli shahar ichki ishlar bo'limi ham talab darajasida jihozlangan. Barcha kuzatuv kameralaridagi tasvirlarni bo'limdagi monitorlar orqali navbatchi xodimlar kuzatib boradi. Hududda bemaqsad yurgan yoki shubhali ko'ringan har bir kishi bo'limdagi ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va qidiruvda bo'lgan shaxslar bilan solishtiriladi. Bundan tashqari, ushbu hududda barpo etilgan 55-maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasasi ham videokuzatuv tizimiga ulangan. O'quvchilarning maktabga kirib chiqishlari hamda darslarni o'zlashtirishi monitoringini olib borish uchun turniket va elektron jurnal tizimlari joriy etilgan. Ayni damda markaz mutaxassislari tomonidan vazirlilik va idoralarda mavjud tizimlarni o'rganish hamda ularni "112" yagona xizmat tizimiga integratsiya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Tizimni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida, dunyoning turli shaharlarida "Xavfsiz shahar" ADKni joriy qilish va rivojlantirishga hissa qo'shgan yirik tashkilotlar bilan hamkorlik qilinib, ishchi uchrashuvlar, seminar treninglar o'tkazilib, chet el tajribalari, kamchiliklari va yutuqlarini o'rganish maqsadida

mutaxassislarning “Xavfsiz shahar” ADK a’lo darajada joriy etilgan davlatlarga xizmat safarlari tashkillashtirilmoqda. Shuningdek, markaz mutaxassislari tomonidan «Xavfsiz shahar» ADKning tarkibiy qismlari bo‘lgan sinov loyihalari, jumladan, Sergeli 6A mavzesida joriy etilgan «Xavfsiz hudud», Toshkent viloyatining Parkent tumanida «Xavfsiz dam olish» loyihasi yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, sayyoohlar va mehmonlar uchun xavfsizlikni ta’minalash va zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida markaz mutaxassislari va ichki ishlar xodimlari hamkorligida «Xavfsiz turizm» loyihalari amalga oshirilyapti.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda «Xavfsiz shahar» ADKnin tatbiq etish yoshlarning odob-axloqi, haydovchilarimizning transport vositalarini boshqarish madaniyati va yo‘lovchilarning mas’uliyatlarini oshirishga hamda nafaqat o‘zimizning, respublikamizga tashrif buyurayotgan mehmonlarning ham xavfsizliklarini ta’minalashga yordam beradi, deb to‘liq ishonch bilan ayta olamiz. Toshkent shahrida sutkaning kechki va tungi vaqtida jamoat tartibini ta’minalash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni tashkil etish samaradorligiga quyidagi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda:

- sutkaning kechki va tungi vaqtidagi faoliyat jamoat tartibini ta’minalash kuchlarining va jalb etilgan davlat organlari bo‘linmalari shaxsiy tarkibining yaqin hamkorligini tashkil etish va muvofiqlashtirishda muammolar mavjudligi;
- jamoat tartibini ta’minalash kuchlari tomonidan sutkaning kechki va tungi vaqtida avtomobillarda patrullik qilish aralash tartibda, ya’ni ham avtomobillarda, ham piyoda amalga oshirilishi tizimi takomillashtirishga muhtojligi;
- sutkaning kechki va tungi vaqtida xizmat olib borishga jalb etilgan jamoat tartibini ta’minalash kuchlari va davlat organlari shaxsiy tarkibining faoliyati davriy ravishda sutkaning kunduzgi vaqtidagi ish bilan almashtirib turishning real imkoniyati mavjud emasligi;
- hodisa sodir bo‘lgan yoki signal berilgan joyga jamoat tartibini ta’minalash kuchlarining eng yaqin patrul guruhi darhol yetib kelishini ta’minalash orqali

huquqbazarliklar haqida kelib tushgan ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha tezkor chora ko'rishni tashkil etishning huquqiy mexanizmlarida bo'shliqlar mavjudligi;

- jamoat tartibini ta'minlash kuchlarini muvofiqlashtirish va harakatlantirish maqsadida, jumladan hodisa sodir bo'lgan joyga bevosita chiqqan holda shtab tashkil etish va uning faoliyatini boshqarishda muammolar mavjudligi;

- ommaviy tadbirlarni o'tkazishda va odamlar gavjum joylarda tezkor va kriminogen vaziyatni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bevosita kuzatish hamda vizual baholashni amalga oshirish samaradorligi sustligi;

- jamoat tartibini ta'minlash kuchlari tomonidan huquqbazarlik holatlari aniqlangan va qidiruvdagi jinoyatchilar qo'lga olingan hollarda ichki ishlar va prokuratura organlarining profilaktika, tezkor va tergov bo'linmalarini jalb etish va faoliyatini tashkil qilish mexanizmlari lozim darajada ishlab chiqilmaganligi;

- amaldagi patrul yo'nalişlarining joylashuvini o'zgaruvchan operativ va kriminogen vaziyatga muvofiq tarzda jamoat tartibini saqlash kuchlarini tezkor harakatlantirish mexanizmini joriy etgan holda qayta ko'rib chiqishga muhtojligi;

- patrullik qilish uchun biriktirilgan hududda jamoat tartibini buzish holatlari mavjudligi, ularning o'z vaqtida oldi olingani va barham berilgani ko'rsatkichi, shuningdek sutkaning kechki va tungi vaqtida xizmat olib borayotgan jamoat tartibini ta'minlash kuchlari faoliyatini baholashning aniq mezonlari mavjud emasligi;

- sutkaning kechki va tungi vaqtida ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish murakkab bo'lib, uning tartibini soddalashtirishga zarurat yuzaga kelayotgani;

- jamoat tartibini ta'minlash kuchlarining o'zaro muvofiqlashgan hamkorligini tashkil etishning uyg'un mexanizmlari va ularning huquqbazarliklarga tezkor munosabat bildirish uslubini qayta ko'rib chiqish zarurligi;

- Toshkent shahar ichki ishlar organlarining amaldagi shtat birliklarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish lozimligi, ayniqsa patrul-post va yo'l-patrul xizmatlarining

tuzilmasini takomillashtirish va shtat birliklarini ularning real ish hajmini hisobga olgan holda qayta taqsimlash lozimligi;

- Toshkent shahar ichki ishlar organlari patrul-post xizmatlari bo'linmalarini individual himoya va faol mudofaaning zamonaviy maxsus vositalari bilan jihozlanganlik va ta'minlanganlik holati zamonaviy chaqiriqlarning xavfli ko'rinishlariga javob bermasligi;

- Toshkent shahar ichki ishlar organlari patrul-post va yo'l-patrul xizmatlarining avtomobil parkini bosqichma-bosqich qayta jihozlash va mustahkamlashga ehtiyoj mavjudligi;

- yo'l-ko'cha bo'ylab to'xtash va to'xtab turish joylari 70 foiz tashkil qilinmagani yo'l-transport hodisalari sonining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Agarda rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu davlat poytaxtlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning o'ziga xos tizimi yaratilgan.

B.P.Kondrashovning fikricha, jamoat xavfsizligi - bu normalarga rioya qilish va amalga oshirish natijasida shakllanadigan ijtimoiy-huquqiy kategoriya, daxlsizligi davlat, jamiyat tomonidan kafolatlangan jamoat munosabatlari tizimidir¹. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida huquq-tartibotni saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash borasida bir qator islohotlar amalga oshirilgan edi. Xususan, 1999 yilda Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash konsepsiysi tasdiqlanib amalga kiritilgan. Asosiy ichki migratsiya oqimining poytaxtg'a yo'nalgaligi, shuningdek poytaxt nafaqat ma'muriy markaz, balki madaniy va ma'rifiy hamda iqtisodiy va moliyaviy markaz xususiyatiga ham egaligi, qolaversa keng turistik imkoniyatlarga egaligi huquq-tartibotni saqlashda inobatga olinishi lozim bo'lgan muhim omillar sirasiga kiradi. Bugungi kunda ichki ishlar organlari tomonidan tizimda, turli sohaviy xizmatlarda foydalanilayotgan 39 ta avtomatlashtirilgan tizimlarning

¹ Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства ее обеспечения: дис. докт. юрид. наук. М., 1998. 302 с.

o‘zaro hamda boshqa vazirlik va idoralar bilan ma’lumot almashinuvi (integratsiya) yo‘lga qo‘yildi. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida “Pasport-viza”, “Manzil”, “YE-mehmon”, Yo‘l harakati xavfsizligi sohasida “Ma’muriy amaliyot”, “Avtomototransport vositalari hisobini yuritish”, “Haydovchilik guvohnomalari hisobini yuritish”, Ekspert-kriminalistika bosh markazining “Multibiometrik ma’lumotlari orqali shaxsni aniqlash”, “Avtomatlashtirilgan daktiloskopik tizimi” shularning jumlasidandir. Mazkur axborot tizimlari nafaqat ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralari, balkim, fuqarolarga interaktiv shaklida davlat xizmatlarni ko‘rsatish uchun ham foydalaniadi². Mamlakatimizda ham jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg‘unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo‘yicha yakdil harakatlarni, ularning hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlar doirasida poytaxt Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi³. Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subektlarning yaqin hamkorlikda ishlashini samarali ta’minlash, birinchidan, ushbu hamkorlikning huquqiy tartibga solinganligiga; ikkinchidan, o‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, usul va shakllarining, kuch va vositalarining aniq belgilab olinganligi, shuningdek hamkorlikning funksional vakolatlar doirasi bilan aniq chegaralanganligiga; uchinchidan, hamkorlikning muhim sharti bo‘lgan axborot muhitining yaratilganligiga; to‘rtinchidan, hamkorlikning birgalikda rejalarhtirilishi, rejalarning amaldagi ijrosi samarali ta’minlanishi va ish natijalarining birgalikda tahlil qilib borilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Toshkent shahrida konsepsiya elementlarini joriy etish amaliyoti olib borilmoqda. Ushbu Konsepsiyanı innovatsion barqaror

² Ниязов Ш.А. (2022). Жамоат хавфсизлигини таъминлашда ички ишлар органлари фаолиятини рақамлаштириш омили. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1(3), 13-17.

³ Мухамедов Ў.Х.: Ўзбекистонда халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш истиқболлари: Монография. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б. 418-419.

rivojlantirish maqsadlarida amalga oshirish uchun quyidagi 4 bosqichli modeldan foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства ее обеспечения: дис. докт. юрид. наук. М., 1998. 302 с.
2. Ниязов Ш.А. (2022). Жамоат хавфсизлигини таъминлашда ички ишлар органлари фаолиятини рақамлаштириш омили. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnalı*, 1(3), 13-17.
3. Мухамедов Ў.Х.: Ўзбекистонда халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш истиқболлари: Монография. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б. 418-419.